



O‘ZBEKISTON VA TURKIYA: TARAQQIYOT YO‘LIDA  
HAMKORLIK MASALALARI

*Halimova Go‘zaloy Hamza qizi*

*Buxoro Davlat Universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda O‘zbekiston va Turkiya Respublikalari o‘rtasidagi ko‘p qirrali strategik sheriklik munosabatlarning bugungi holati, rivojlanish dinamikasi va istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqotda ikki davlat o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari ko‘rib chiqilib, uni yanada takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston, Turkiya, strategik sheriklik, savdo aylanmasi, investitsiya, Turkiy Davlatlar Tashkiloti, integratsiya.

Bugungi globalashuv va geosiyosiy o‘zgarishlar sharoitida davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlik barqaror taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda. O‘zbekiston va Turkiya munosabatlari so‘nggi yillarda har ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi va uzoqni ko‘zlagan strategiyasi natijasida sifat jihatidan yangi, oliy darajadagi strategik sheriklik bosqichiga ko‘tarildi. Ikki xalqni qadimiy tarix, mushtarak til, madaniyat va an‘analar bog‘lab turishi ushbu munosabatlarning mustahkam poydevori hisoblanadi.

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi hamkorlikning asosi iqtisodiy munosabatlar sanaladi. So‘nggi besh yilda o‘zaro tovar aylanmasi barqaror o‘sib, 3 milliard AQSH dollaridan oshdi. Ikki davlat hukumatlari oldida yaqin kelajakda bu ko‘rsatkichni 5 milliard dollarga yetkazish maqsadi turibdi. Turkiyadan O‘zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlariga, jumladan, to‘qimachilik, qurilish, sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi va energetika



sohalariga kiritilayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmi ortib bormoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonda turk kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 2000 dan oshganligi ham investitsion muhit jozibadorligining yorqin dalilidir.

Taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlikning yana bir muhim qanoti — madaniy-gumanitar va ta’lim sohasidagi integratsiya hisoblanadi. Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) doirasida amalga oshirilayotgan qo‘shma loyihalar, o‘zaro vizasiz rejimning joriy etilishi hamda aviaqatnovlar sonining oshishi madaniy almashinuv va ziyorat turizmini jadal rivojlantirmoqda. Xususan, O‘zbekistonga tashrif buyurayotgan Turkiya fuqarolari sonining yildan-yilga oshib borishi (masalan, 2026-yil boshidagi barqaror o‘shish ko‘rsatkichlari) nafaqat iqtisodiy foyda, balki xalqlar diplomatiyasining muvaffaqiyati sifatida ham baholanishi lozim.

Biroq, mavjud ulkan salohiyatga qaramay, hamkorlikni yanada kengaytirish yo‘lida ayrim masalalar o‘z yechimini kutmoqda. Logistika va transport koridorlarini diversifikatsiya qilish, ayniqsa, O‘rta yo‘lak (Trans-Kaspiy xalqaro transport marshruti) imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish davr talabidir.

Shulardan kelib chiqib, O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi taraqqiyot hamkorligini yanada jadallashtirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

1. **Raqamli va yuqori texnologiyalar klasterlarini yaratish:** Turkiyaning IT va innovatsiyalar sohasidagi ilg‘or tajribasini (masalan, texnoparklar modelini) O‘zbekiston hududlarida keng joriy etish va qo‘shma "Startup" fondlarini shakllantirish.
2. **Transport-logistika zanjirini arzonlashtirish:** Ikki davlat o‘rtasida bojxona tartib-taomillarini to‘liq raqamlashtirish orqali yuk tashish xarajatlari va vaqtini qisqartirish, logistika markazlari tarmog‘ini yaratish.

3. **Ta'lim integratsiyasi:** Oliy ta'lim muassasalari o'rtasida muhandislik, turizm va boshqaruv sohalarida "Ikki diplomli" (Double degree) dasturlarni ko'paytirish.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, O'zbekiston va Turkiya munosabatlari qisqa davr ichida o'zaro ishonchga asoslangan amaliy hamkorlik darajasiga yetdi. Belgilangan istiqbolli rejalar va taklif etilayotgan chora-tadbirlarning hayotga tatbiq etilishi har ikki davlatning barqaror taraqqiyotiga kuchli turki beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

#### (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qrori. // Lex.uz.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi (2025-2026 yy). – T.: 2026.

3. Jo'rayev S. O'zbekiston va Turkiya: strategik sheriklikning yangi ufqlar sari. – T.: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti nashriyoti, 2022. – B. 45-48.

4. Yılmaz M. Türkiye-Özbekistan Ekonomik İlişkilerinin Geleceği ve Fırsatlar. // Avrasya İncelemeleri Dergisi, 2023. – № 11(1). – P. 89-102.